

Xalqaro turizmga tasir qiluvchi omillarni zamonaviy adabiyotlardagi talqini.

Bahromova Munisxon

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Magistranti.

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi biz xalqaro turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar batafsil tahlil qildik. Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy omillari, siyosiy-huquqiy muhiti, madaniy-tarixiy, geografik, infratuzilma va xavfsizlik omillarining o'rni muhokama etiladi. Shuningdek, turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, strategik rejalar, loyihalar va tashabbuslarning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro turizm, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, siyosiy-huquqiy omillar, madaniy-tarixiy omillar, geografik omillar, infratuzilma, xavfsizlik, davlat siyosati, rivojlanish.

Turizm fransuzchada: *tour* — sayr, sayohat, sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiyamaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgandi. Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga jo'natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqqandi.

Xalqaro turizm deganda milliy chegaralarni kesib o'tuvchi turizm tushuniladi. Globallashuv sayyohlikni butun dunyo bo'ylab ommaviy dam olish mashg'ulotiga aylantirdi. Jahon sayyohlik tashkiloti sayyohlarni quyidagicha ta'riflaydi: ular bir yildan ko'p bo'lmagan vaqt davomida dam olish, ishlash va boshqa maqsadlar uchun odatdagi muhitdan tashqarida sayohat qilishadi va qolishadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) hisob-kitoblariga ko'ra, har qanday vaqtda taxminiy 500 minggacha odam sayyoh sifatida parvoz qiladi.

2010-yilda xalqaro turizm hajmi 919 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu 2009-yilga nisbatan 6,5 foizga oshdi, bu real ko'rsatkichning 4,7 foiz o'sishiga to'g'ri kelmoqda. 2010-yilda dunyo bo'ylab sayyohlarning umumiy soni 940 milliondan ortiqni tashkil etgandi. 2016-yilga kelib, bu raqam 1.235 millionga yetdi va maqsadli xarajatlar 1.220 milliard AQSH dollarini tashkil etmoqda. COVID-19 inqirozi xalqaro turizmga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi, bu umumiy o'sish tendensiyasini sezilarli darajada sekinlashtirdi. Xalqaro turizm atrof-muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu qisman havo qatnovi bilan bog'liqdir.

2000-yillar oxiridagi turg'unlik natijasida xalqaro sayohatga bo'lgan talab 2008-yilning ikkinchi yarmidan 2009-yil oxirigacha sezilarli darajada sekinlamoqda. Bu salbiy tendentsiya 2009-yilda kuchaygan, ba'zi mamlakatlarda H1N1 grippi virusi tarqalishi bilan kuchaygan, oqibatda 2009-yilda dunyo bo'ylab xalqaro sayyohlar soni 4,2 foizga, 880 millionga kelgan va xalqaro turizmdan tushgan daromad 5,7 foizga kamaygandi.

Xalqaro sayyohlar 2012-yilda 1,035 milliardni, 2011-yilda 996 millionni, 2010-yilda 952 millionni tashkil etgandi.

2011 va 2012-yillarda xalqaro sayohat talabi 2000-yillar oxiridagi turg'unlik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashni davom ettirdi. Turizm 2008-yilning ikkinchi yarmidan 2009-yil oxirigacha keskin pasayib ketgan edi. 2008-yilning ikkinchi yarmida xalqaro sayyohlar sonining o'sishi salbiy ko'rsatkichga o'tdi va 2007-yildagi 7 foiz o'sish bilan solishtirganda yiliga atigi 2 foizni tashkil etmoqda.

Salbiy tendentsiya 2009-yil davomida kuchaygan, ba'zi mamlakatlarda H1N1 grippi virusi tarqalishi bilan kuchaygan, natijada 2009-yilda dunyo bo'ylab xalqaro sayyohlar soni 4,2 foizga – 880 millionga va xalqaro turizmdan tushgan daromad 5,7 foizga kamaydi.

Dunyodagi eng yaxshi sayyohlik joylari
2019-yilda dunyo bo'ylab xalqaro sayyohlar soni 1,460 milliardga yetgan, bu 2018-yilga nisbatan 3,7 foizga ko'p hisoblanadi.

Butunjahon Turizm Tashkiloti jahon mamlakatlarida sayyohlikni targ'ib qilish, aholining millati, dini, tili, irqi, kelib chiqishidan qat'iy nazar umumiy inson

huquqlari va iqtisodiy faravonlik, o'zaro anglashuv, tinchlik, o'zaro hurmat ruhida turizm muhitini tashkil etuvchi yirik tashkilot hisoblanandi. Butunjahon Turizm Tashkiloti — rivojlanayotgan mamlakatlarda turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Turizm rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy sabablar quyidagilar.

- Mamlakatda o'rtacha maoshning yuqoriligi.
- Aholining sog'lomlashtirish va sayohatga bo'lgan qiziqishi.
- Milliy iqtisodiyotda inson omilini to'liq tiklash uchun ta'til muddatlarining ko'pligi.
- Qarindoshchilik aloqalari.
- Xalqaro biznes va anjumanlar.
- Aholining rekreatsion hududlarga bo'lgan extiyoji yuqoriligi
- Sport musobaqalari

Jahon turizmi jahon iqtisodiyotining eng yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Oxirgi o'ttiz yillikda dunyo bo'ylab sayyohlar soni qariyb 4 baravarga oshgan, turizmdan tushgan daromad esa 25 baravardan ko'proqqa oshgan. Ammo 2019-yilda boshlangan global pandemiya ham turizmni cheklab o'tmagan, xususan butun jahon bo'ylab 2019-yilda turizm salmog'i o'sishi 2018-yilga nisbatan +4% ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan jahon bo'ylab sayyohatlar -73% gacha pasaydi. 2021-yilda esa -88% gacha pasayish kuzatildi. Jahon turizm industriyasi 2021-yilgacha besh yil ichida yillik 4,3% ga yoki 1,3 trillion dollargacha kamaygan. Besh yillik davrning aksariyat qismida global turizm yaxshi natijalarga erishdi, rivojlanayotgan mamlakatlar o'sishni rag'batlantirishda davom etmoqda. Bundan tashqari, Osiyo va Janubiy Amerika mamlakatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar jadal sur'atlarda o'sib bordi, bu esa ushbu hududlardagi iste'molchilarga ko'proq chet elga sayohat qilish imkonini berdi. Biroq, COVID-19 (koronavirus) pandemiyasi tufayli sanoat daromadi 2020-yilda qariyb 50,0% ga kamaydi. Sababi global epidemiya turizm bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalarga katta ta'sir ko'rsatdi. Jumladan dunyo mintaqalarida turizm

sohasida COVID-19 pandemiyasi katta pastlashlarga sabab bo'ldi.

Turizm sohasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda UNWTO va boshqa nufuzli tashkilotlarning hisobotlari, tadqiqotlari shuningdek, tavsiyalari tahlil qilindi. Shuningdek, turizm iqtisodiyoti, ijtimoiy-madaniy omillari, geografik va infratuzilmaviy jihatlari ustida ish olib borgan olimlarning ilmiy ishlari o'rganib chiqildi.

Tahlil jarayonida turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi asosiy toifalarga ajratildi:

- Ijtimoiy-iqtisodiy omillar
- Siyosiy-huquqiy omillar
- Madaniy-tarixiy omillar
- Geografik omillar
- Infratuzilma omillari
- Xavfsizlik omillari
- Davlat siyosati va tashabbuslar

Har bir toifa doirasida omillarning xalqaro turizm rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi, ularga qanday yondoshish kerakligi va mavjud muammolar batafsil tahlil qilindi. Shuningdek, mavzuga oid dolzarb muammolar hamda turizm rivojlanishini rag'batlantiruvchi choralar o'rganildi. Adabiyotlar tahlili jarayonida turli davlatlardagi turizm sohasi qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlari, strategik rejaları ham taqqoslangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidagi "O'zbekiston Respublikasida turizm faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror, Malayziya xalqaro turizm rivojlantirish strategiyasi, Fransiyadagi "Turizm industriasini qo'llab quvvatlash dasturi" va boshqa hujjatlar o'rganildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi quyidagi asosiy omillar mavjud:

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Bu yerga aholi daromadlari va turmush darajasi, ish vaqti va dam olish muddatlari, mehnat migratsiyasi, iste'mol andozalari va qadriyatlar hamda fuqarolarning sayyohlik madaniyati nazarda tutiladi.

Siyosiy-huquqiy omillar. Bu omillar qatoriga mamlakatlararo munosabatlar, vizalar va chegaralarni ochish darajasi, qonunchilik bazasi va tartibga solish, turizm faoliyatini rag'batlantiruvchi imtiyozlar hamda xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurashish masalalari kiradi.

Madaniy-tarixiy omillar. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: moddiy va nomoddiy madaniy meros, tarixiy obidalar va yodgorliklar, milliy an'analar va udumlar, diniy e'tiqodlar va marosimlar hamda ommaviy tadbirlar va festivallar.

Geografik omillar. Bu omillarga mamlakatning geografik joylashuvi, iqlim sharoitlari, tabiiy resurslar, tabiiy landshaftlar va qo'riqxonalar hamda transport aloqalari va logistika masalalaridir.

Infratuzilma omillari. Ular mehmonxona va dam olish maskanlarining sifati, umumiy ovqatlanish xizmati sifati, transport infratuzilmasi rivojlanganligi, aloqa vositalari va internet tarmog'i holati shuningdek, turistik obyektlarning infratuzilmasi bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi.

Xavfsizlik omillari. Bu omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi: siyosiy barqarorlik va konstitutsiyaviy huquqiy tartibotlar, jinoyatchilikka qarshi kurashish, ekologik va tabiiy ofatlar xavflari, sanitariya va gigiyena talablari hamda favqulodda vaziyatlarga shaylik darajasidir.

Davlat siyosati va tashabbuslar. Bu yerga turizm sohasidagi davlat dasturlari va loyihalar, soliq va bojxona imtiyozlari, sarmoyalar va subsidiyalarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va malaka oshirish hamda turizm mahsulotlarini targ'ib qilish va brendlash masalalari kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar turizm rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar asosan talabga ta'sir etsa, infratuzilma, madaniy-tarixiy, geografik va davlat siyosati omillari esa turizm xizmatlarining sifatini belgilaydi. Xavfsizlik va siyosiy-huquqiy omillar esa turizm oqimlariga bevosita ta'sir qiladigan sabablardir.

Misol uchun, davlat byudjetidagi daromadlar pasayishi yoki iste'mol andozalarining o'zgarishi talabning kamayishiga olib kelishi mumkin hisoblanadi. Ayni paytda, mamlakatlararo munosabatlarning yomonlashuvidir yoki favqulodda

vaziyatlarning yuzaga kelishi turizm oqimlarining keskin qisqarishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, madaniy-tarixiy meros va tabiiy resurslarni saqlash, ularni turistlar uchun jozibali qilish turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Buning uchun tegishli infratuzilma mavjudligi, xavfsizlik talablariga javob berilishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi muhim. Ushbu omillarning barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, ular uyg'unlashtirilgandagina xalqaro turizm barqaror sur'atlarda rivojlana oladi. Shu bois mamlakatlar tomonidan turizm sohasiga kompleks yondashuvga asoslangan siyosat yuritilishi muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro turizmning barqaror rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-tarixiy, geografik, infratuzilma, xavfsizlik omillarini hamda davlat siyosati va tashabbuslarini kompleks ravishda inobatga olish zarur.

Turizm sohasi rivojlanishini tezlashtirish uchun mamlakatlar:

Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishlari;

Vizalar va chegaralarni ochish masalalarini tartibga solishlari;

Madaniy meros va tabiiy resurslarni saqlash hamda ularni turistlarga mo'ljallangan infratuzilma bilan ta'minlashlari;

Umumiy ovqatlanish va transport-logistika xizmatlarini yanada yaxshilashlari;

Xavfsizlik, sanitariya-gigiyena, jinoyatchilikka qarshi kurashish choralarini kuchaytirish lozimligi;

Turizm sohasida qonunchilik bazasini takomillashtirishlari, imtiyozlar va subsidiyalar belgilashlari kerak bo'ladi.

Shuningdek, turizm mahsulotlarini xorijiy bozorlarga targ'ib qilish, brendlash ishlari yoliga qo'yilishi ham juda muhim ahamiyatga egadir.

Turizm tashkilotlarini takomillashtirish hamda kichik va o'rta turistik korxonalarining xizmat ko'rsatish bozorini faollashtirish, shuningdek, xorijiy sarmoyani turizm sohasiga jalb qilish maqsadida 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Toshkentda "Xususiy sayyoxlik tashkilotlari

uyushmasi" tashkil etildi. U 300 dan ziyod turistik korxonalar bilan yaqindan aloqada bo'lib faoliyat olib boradi. O'zbekistonda "Kumushkon" turistik bazasi va "Sanzar" kemping majmuasi mavjud bo'lib, ular "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tizimi tashkilotlari hisoblanadi. Shu bilan birga Chorvoq, Chimyon, Beldersoy dam olish oromgohlari va yuzga yaqin xususiy mehmonxonalar ishlab turibdi. O'zbekistonda ko'plab turistlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan mehmonxonalar soni tobora o'sib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. UNWTO (2019) 'International Tourism Highlights', World Tourism Organization, Madrid.
2. Pizam, A. va Mansfeld, Y. (1999) Consumer Behaviour in Travel and Tourism. NY: Routledge.
3. UNWTO (2022) 'Tourism and Covid-19 - Unprecedented Economic Impacts', World Tourism Organization, Madrid.
4. Goeldner, C.R. va Ritchie, J.R.B. (2009) Tourism: Principles, Practices, Philosophies. 11th Edition, John Wiley & Sons, Hoboken, NJ.
5. Sharpley, R. (2018) 'Tourism, tourists and society', Routledge, Abingdon.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.07.2020 yildagi 433-son, <https://lex.uz/docs/-4930291>
7. Tourism Malaysia (2020) 'Malaysia Tourism Transformation Plan 2020–2030', Ministry of Tourism, Arts and Culture Malaysia.
8. Ministère de l'Économie et des Finances (2021) 'Plan de soutien à la filière touristique', République Française.
9. WTTC (2021) 'Economic Impact Reports', World Travel & Tourism Council.
10. UNDP (2015) 'Tourism and Poverty Reduction Strategies in the Integrated Sustainable Rural Development Approach', United Nations Development Programme.